

# TTPU ning yangi o'quv binosi haqida

Kecha TTPU da qurilishi 6 oy davom etgan yangi o'quv binosining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Yangi binoning ochilishidan maqsad talabalar va abituriyentlar sonining ko'payib borayotgani sababli ma'ruzalar zali va o'quv xonalarini ko'paytirish hamda yangi laboratoriyalarni yaratish edi.

Ushbu bino ulkan LED-ekran, interaktiv panel va eng so'nggi innovatsion uskunalar bilan jihozlangan, umumiy 500 o'ringa mo'ljallangan 3 ta auditoriyadan iborat. Shuningdek, binoda 2 ta laboratoriya – IT laboratoriyasi va materialshunoslik laboratoriyasi, hamda Akfa Class trening va seminarlar xonasi mavjud.

Ushbu bino universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga qurilgan.

Ushbu binoning tashkil etilishi o'quv jarayonini osonlashtiradi va talabalarga o'z sohalarida munosib mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi deb umid qilamiz.